XALQ DEPUTATLARI DO‘STLIK TUMAN KENGASHINING QARORI

2023 - yil 11 - yanvar VI-40-3-3-47-K/23 Do‘stlik tuman hokimligi

Do‘stlik tumanida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan jismoniy va yuridik shaxslarning yer solig‘i uchun 2023 yilga belgilangan bazaviy soliq stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasi hamda 437-moddalariga asosan 2023 yilda Do‘stlik tumanida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan jismoniy va yuridik shaxslarning yer solig‘i uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalarini tasdiqlash bo‘yicha, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasiga muvofiq belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yuridik shaxslarning yer solig‘i uchun 2023 yilga belgilangan bazaviy soliq stavkalari bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 437-moddasiga muvofiq yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar (bundan dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlar mustasno) bo‘yicha mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi, yuqorida 1-2-ilovalar bilan belgilangan soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga egaligi ko‘rsatib o‘tilsin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Daniyarov), tuman moliya bo‘limi (A.Latifov), tuman davlat soliq inspeksiyasi (M.Tursunmuratov)

larga 2023 yildagi byudjet-soliq siyosatidagi o‘zgarishlar, soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror “Do‘stlik hayoti” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining dostlik.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlar islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'icha doimiy komissiyasi hamda tuman hokiming birinchi o'rinbosari B.Daniyarov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **SH.Darvishev**

Xalq deputatlari Do‘stlik tuman
Kengashining
2023 yil 11 yanvardagi
VI-40-3-3-47-K/23-son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘lajallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisentlar

T/R	Mahallalar	Soliq kodeksining 429-moddasiga asosan 1 gektar uchun bazaviy soliq stavkasi, ming. so‘mda	Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qo‘llanilgan koeffisient ***(0,7-3,0)***		Tuman mahallalar kesimida 1 gektar uchun yer solig‘i, ming.so‘mda
			kamaytiruvchi	oshiruvchi	
1	***2***	***3***	***4***	***5***	***6***
1	**A.Navoiy MFY**	3232,0		1,25	4 040,00
2	**Bog‘zor MFY**	3232,0	0,84		2 714,88
3	**Bunyodkor MFY**	3232,0	0,84		2 714,88
4	**G‘.G‘ulom MFY**	3232,0		1,25	4 040,00
5	**Qaxramon MFY**	3232,0	0,84		2 714,88
6	**Manas MFY**	3232,0	0,84		2 714,88
7	**Mevazor MFY**	3232,0	0,84		2 714,88
8	**Navro‘z MFY**	3232,0	0,84		2 714,88
9	**Oltin vodiy MFY**	3232,0	0,84		2 714,88
10	**Sanoatchilar MFY**	3232,0		1,25	4 040,00
11	**Saritepa MFY**	3232,0	0,84		2 714,88
12	**Chinobod MFY**	3232,0		1,25	4 040,00

Xalq deputatlari Do‘stlik tuman
Kengashining
2023 yil 11 yanvardagi
VI-40-3-3-47-K/23-son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffifentlar

T/R	Mahallalar	Soliq kodeksining 437-moddasiga asosan 1 kv.m uchun bazaviy soliq stavkasi, so‘mda	Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qo‘llanilgan koeffitsient ***(0,7-3,0)***		Tuman maxallalar kesimida 1 kv.m uchun yer solig‘i, so‘mda
			kamaytiruvchi	oshiruvchi	
1	***2***	***3***	***4***	***5***	***6***
1	A.Navoiy MFY	340,34	0,92		313,11
2	Bog‘zor MFY	340,34	0,91		309,71
3	Bunyodkor MFY	340,34	0,90		306,31
4	G‘.G‘ulom MFY	340,34	0,94		319,92
5	Qaxramon MFY	340,34	0,70		238,24
6	Manas MFY	340,34	0,70		238,24
7	Mevazor MFY	340,34	0,70		238,24
8	Navro‘z MFY	340,34	0,70		238,24
9	Oltin vodiy MFY	340,34	0,70		238,24
10	Sanoatchilar MFY	340,34	0,70		238,24
11	Saritepa MFY	340,34	0,74		251,85
12	Chinobod MFY	340,34	0,70		238,24